

**PSIXOFIZIOLOGIK RIVOJLANISHI VA XULQIDA NUQSONI BO'LGAN
BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Daniyarova Aziza Mirzayaxyayevna

*Farg'onan viloyati Rishton tumani 1 - sonli umumta'lim mакtabining
amaliyotchi psixologи*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va korreksion pedagogika orqali ta'lism-tarbiya berishning zamонавиј usullari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Korreksion pedagogika, defektologiya, differensatsiya, anomal.*

KIRISH

Korreksion pedagogika, pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida. Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya — yunoncha defectus — nuqson, kamchilik, logos — fan. ta'lismot) — rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega. Maxsus individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish hisoboti, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamонавиј pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan. Korreksion pedagogika (defektologiva) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi: Pedagogik lug'atda «korrektsiya» tushunchasi (yunoncha «korrectio» tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi. Ana shu lug'atda «korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'lig'i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi. Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi - belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat. Korreksion-pedaaogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora- tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim. Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi,

korreksion- profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lif dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyalı anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatları mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rGANISH tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1:Rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korrektsion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- 2:Differensatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- 3:Anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- 4:Rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- 5:Balalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- 6:Anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora- tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- 7:Anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega: Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lif tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqtি hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqtি alohida ahamiyatga ega. Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkaziladi, psixik funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darjasida oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi. Anomal bolalarni tarbiyalash — korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning

darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta’lim muassasasi o’rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo’llab-quvvatlash, bir-birlariga yordam ko’rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o’ziga xizmat ko’rsatish, mehnat ko’nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko’nikmalarini shakllantirishga yo’naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo’lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o’rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim. Korreksiya (yunoncha tuzatish) deganda bolaning psixik va jismoniy rivojlanishi dagi nuqsonlarni tuzatish, yo’qotish va pasaytirish nazarda tutiladi. Korreksion - tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion — tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o’qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta’limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o’z ishlarini rejalashtirish ko’nikmalari, og’zaki ko’rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, doridarmonalr qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo’ladi. Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» — o’rnini to’ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funktsiyalarining o’rnini to’ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo’lgan bolalarni o’qitish, tarbiyalash va rivojlanish — murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bolgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo’nalishlarda olib boriladi:

Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiatini va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o’rganish.

Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo’lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o’rganish.

Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sababoqibatli asoslari)ni aniqlash.

Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksionpedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lif manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'naliishlarini aniqlash.

Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi. Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakatdir.

XULOSA

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lif o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lif tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, yetarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksionpedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayupova.M.Y.—Logopediya|| O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatashriyoti Toshkent – 2007.
2. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi|| Maruza matni.T-2001
3. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik) – T: «Barkamol fayz media», 2018
4. Islomova, O. (2021). UMUMTA'LIM MAKtablARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA SHAXOBCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH

BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2619>.

5. Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании.

